

## O'ZBEKISTON SSSR DA TA'LIM TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI (1941-1945-YILLAR)

### HISTORIOGRAPHY OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE UZBEK USSR (1941-1945)

### ИСТОРИОГРАФИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА В СССР (1941-1945 ГОДЫ)

*Ravshanova Marjona Bahrom qizi*  
*O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti*  
*Tarix mutaxasisligi 1-kurs magistranti*  
*Telefon nomer: +998 50 073 10 08*  
[\*ravshanovamarjona13@gmail.com\*](mailto:ravshanovamarjona13@gmail.com)

**Annotasiya.** Ikkinchi jahon urushi davri (1941-1945) O'zbekiston ta'lismi uchun murakkab va o'ziga xos davr bo'ldi. Urush yillari ta'lismi oldida yangi vazifalar qo'ydi, resurslar cheklandi, va ta'lismi jarayoni qiyin sharoitlarda olib borildi. Ushbu davr ta'lismi tarixshunosligida yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, ko'plab savollarga javob talab qiladi. Ushbu maqolada 1941-1945 yillardagi O'zbekiston ta'lismi tarixshunosligiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallari va boshqa manbalar tahlil qilinib, o'sha davr ta'lismi tizimining xususiyatlari, muammolari va yutuqlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** oliy o'quv yurtlari, doktorantura, aspirantura, fronti, darsliklar, uskunalar, daftarlar, harbiy muassasalar, xalq ta'limi, attestat, oltin va kumush medallar.

**Abstract.** The period of World War II (1941-1945) was a complex and unique period for the education system of Uzbekistan. The war years set new tasks for the education system, resources were limited, and the educational process was carried out in difficult conditions. This period has not been sufficiently studied in the historiography of education and requires answers to many questions. This article analyzes scientific literature, archival materials and other sources devoted to the historiography of the education system of Uzbekistan in 1941-1945, and highlights the features, problems and achievements of the education system of that period.

**Keywords:** higher education institutions, doctoral studies, postgraduate studies, front, textbooks, equipment, notebooks, military institutions, public education, certificate, gold and silver medals.

**Аннотация.** Период Второй мировой войны (1941-1945 гг.) был сложным и особым периодом для системы образования Узбекистана. Годы войны

поставили перед системой образования новые задачи, ресурсы были ограничены, учебный процесс проводился в тяжелых условиях. Этот период недостаточно изучен в историографии образования, и многие вопросы требуют ответов. В данной статье анализируется научная литература, архивные материалы и другие источники, посвященные историографии образовательной системы Узбекистана в 1941-1945 годах, а также освещаются особенности, проблемы и достижения образовательной системы того времени.

**Ключевые слова:** высшие учебные заведения, докторантура, аспирантура, фронт, учебники, оборудование, тетради, военные учреждения, народное образование, грамота, золотая и серебряная медали.

**Kirish.** Urush boshlanishi bilan O‘zbekiston ta’lim tizimi tubdan o‘zgardi. Ko‘plab o‘qituvchilar frontga safarbar qilindi<sup>1</sup>, maktablar kasalxonalar va boshqa harbiy ehtiyojlar uchun foydalanildi. Shu bilan birga, ta’limning ahamiyati yanada oshib, urush sharoitida malakali kadrlar tayyorlashga ehtiyoj kuchaydi. O‘zbekiston xalq ta’limi, jumladan, oliy o‘quv yurtlari og‘ir sinovlardan o‘tdi. Ko‘pchilik professoro‘qituvchilar, talabalar frontga safarbar etildi. Samarqand kooperativ instituti bilan Toshkent moliya iqtisodiyot instituti, Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari, O‘zbek va O‘rta Osiyo davlat universitetlari birlashtirildi. Ularning bo‘shagan binolariga harbiy muassasalar, gospitallar joylashtirildi. O‘z professor-o‘qituvchilari bilan ko‘chirib keltirilgan oliy o‘quv yurtlarining faoliyati respublikada oliy ta’limning yanada rivojlanishiga ijobiy ta’sir etdi. Moskvalik va leningradlik olimlar talabalarga yangi kurslar bo‘yicha ma’ruzalar o‘qidilar, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ko‘maklashdilar, yangi mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Ular xalq xo‘jalik va harbiy ahamiyatga molik mavzularda tadqiqot ishlarini uyushtirdilar<sup>2</sup>.

O‘zbekiston hukumati oliy o‘quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy ba’zasini mustahkamlash, o‘qituvchilar bilan ta’minalash masalalarida ko‘maklashdi. Ayniqsa, ko‘chib kelgan tajribali pedagoglar, olimlar 1943—1944-yillarda o‘z shaharlariga qayta boshlagan, urushning dastlabki davrida vaqtincha yopilgan yoki birlashtirilgan institutlar qayta tiklanayotgan, yangidan Chimboy va Urganch pedagogika institutlari, Namangan va Marg‘ilon o‘qituvchilar institutlari, Toshkent teatr san’ati instituti ochilgan, ilmiy-pedagogik kadrlarga muhtojlik ortgan bir paytda respublika hukumatining oliy o‘quv yurtlariga ko‘magi sezilarli bo‘ldi. Yirik

<sup>1</sup> ЦГА РУ Р 2282, оп. 1, д. 634 Список сотрудников, представленных к награждению медалями за доблестный труд во время Великой Отечественной войны (1941-1945) С.90

<sup>2</sup> Вопросы истории советской школы и педагогики. Москва, 1959; Гончаров Н.П. Перестройка советской школы; Казакова А.С. Ими гордится Родина. Москва, 1961, С. 116

oliy o‘quv yurtlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. Respublika miqyosida ishlab turgan rahbar xodimlar oliy o‘quv yurtlariga ishga yuborildi.

Xalq maorifida ham jiddiy qiyinchiliklar bo‘ldi. Ko‘plab maktablar binolari gospitallar, yotoqxonalar, harbiy o‘quv yurtlariga berildi. Maktablar birlashtirildi, ko‘p smenali o‘qish joriy etildi. Urushgacha respublika maktablarida ishlayotgan o‘qituvchilarning 74,6 foizini erkaklar tashkil etardi. Ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga ketdi. Buning ustiga darsliklar, uskunalar, daftarlar yetishmas edi. Qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, boshlang‘ich sinflar uchun o‘qituvchilar tayyorlandi, boshqa ishga ketgan o‘qituvchilarni maktabga qaytarish tadbirlari ko‘rildi, ularning moddiy-maishiy ahvolini yaxshilashga g‘amxo‘rlik qilindi. 1944-yilda o‘qituvchilar armiya safidan maktablarga qaytarildi. O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi yaxshilandi. Kundalik o‘qish foydali mehnat bilan qo‘sib olib borildi. O‘qishdan tashqari vaqtlarida o‘quvchilar gospitallarga otaliq yordami berdilar, frontdagilarning oilalariga ko‘maklashdilar, temir-tersak to‘plab topshirdilar, qishloq xo‘jalik ishlarida qatnashdilar.

Maktablarda ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o‘quvchilar bilimini baholashning besh balli tartibi, boshlang‘ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o‘rtta maktabni tamomlovchilar uchun yetuklik attestati — guvohnomasi uchun imtihonlar topshirish majburiyati, maktab o‘quv dasturlarini a’lo o‘zlashtirgan va a’lo xulqli o‘quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu tadbirlar dars mashg‘ulotlari saviyasini ko‘tarishga, o‘quvchilar intizomini yaxshilashga olib keldi.<sup>3</sup> Ko‘chirib keltirilgan muassasalar o‘z joylariga qaytib keta boshlagach, maktab binolari ham bo‘shatila bordi, o‘quvchilar o‘z maktablari bag‘riga qaytib, o‘qishlarini davom ettirdilar. Shuningdek, ta’lim tizimi oldida ko‘plab vazifalar amalga oshirildi. Maktablarda harbiy tayyorgarlik darslari joriy etildi, o‘quvchilar frontga yordam berish uchun turli tadbirlarga jalb qilindi. Urush hududlaridan O‘zbekistonga ko‘plab bolalar evakuatsiya qilindi. Ularni ta’lim bilan qamrab olish uchun yangi maktablar ochildi, o‘qituvchilar tayyorlandi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi. Kasb-hunar maktablari va texnikumlar soni ko‘paytirildi. Urush sharoitida ham ilm-fanni rivojlantirishga e’tibor berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi, olimlar urush ehtiyojlariga javob beradigan tadqiqotlar olib borishdi.<sup>4</sup>

### **Xulosा.**

1941-1945 yillardagi O‘zbekiston ta’lim tizimi tarixi murakkab va ko‘p qirrali. Urush sharoitida ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar turdi, qiyinchiliklarga qaramay, ta’lim jarayoni davom etdi va mamlakat uchun zarur bo‘lgan kadrlar tayyorlandi.

<sup>3</sup> Н.А.Константинов, Е.Н.Медынский М.Ф.Шабаева Советская школа и педагогика в годы Великой Отечественной войны (1941-1945). Москва, 1982, С. 249

<sup>4</sup> Иванов С. История системы образования в Узбекистане. Ташкент, 1995. С. 543

Ushbu davrni chuqur o‘rganish, tarixshunoslikdagi kamchiliklarni to‘ldirish va kelajak avlodlar uchun saboq chiqarish muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Гольянова Т.В. Школьное образование в Узбекистане в годы Великой Отечественной войны // Диссерт. на соиск. учен. степени докт.истор. наук. Институт истории. Ташкент, 1964;
2. ЦГА РУ Р 2282, оп. 1, д. 634 Список сотрудников, представленных к награждению медалями за доблестный труд во время Великой Отечественной войны (1941-1945);
3. Хасанбаев Ж. Становление и развитие общего образования взрослых в Советском Узбекистане (1917-1945) диссерт. на соиск. учен. степени докт. пед. наук. Ташкент, 1989;
4. Меликулова Р. Культура Узбекистана в годы войны (1941-1945); Воскобойников. Узбекский народ в годы войны. Ташкент, 1947;
5. Вопросы истории советской школы и педагогики. Москва, 1959; Гончаров Н.П. Перестройка советской школы; Казакова А.С. Ими гордится Родина. Москва, 1961;
6. Кары-Ниязов М. очерки истории народного образования в Узбекистане за 25 лет/Общественные науки в Узбекистане, 1961. № 7;
7. Н.А.Константинов, Е.Н.Медынский М.Ф.Шабаева Советская школа и педагогика в годы Великой Отечественной войне (1941-1945). Москва, 1982;
8. Нравственное воспитание школьников в годы Велико Отечественной войны (1941-1945 гг.).
9. Иванов С. История системы образования в Узбекистане. Ташкент, 1995.
- 10.Петров В.Н. Развитие школьного образования в СССР. Москва, 1987.
- 11.Смирнов А.Ф. Влияние войны на систему образования. Ленинград, 1972.
- 12.Ахмедов Ю. Историческое развитие педагогики в Средней Азии. Самарканд, 2001.